

Afg'oniston Prezidenti bilan uchrashuv



2021-yilning 23-fevral kuni amaliy tashrif bilan Qobul shahriga kelgan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G'ani tomonidan qabul qilindi.

Vazir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G'aniga yo'llagan maktubini topshirdi.

Suhbat davomida O'zbekiston-Afg'oniston ko'p qirrali munosabatlarining hozirgi holati va istiqbollari muhokama qilindi.

Ikki tomonlama hamkorlikning joriy yuqori darajasi mamnuniyat bilan qayd etildi va barcha sohalarda o'zaro manfaatli yaqin aloqalarni yanada chuqurlashtirishga o'zaro sodiq ekanliklari ta'kidlandi.

Prezident Ashraf G'ani birodar Afg'oniston xalqi nomidan Afg'oniston zaminida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, mamlakat iqtisodiyotini tiklashda har tomonlama qo'llab-quvvatlayotgani uchun O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga samimiy minnatdorlik izhor etdi.

Afg'onlarni siyosiy muzokaralarning uzoq muddatli tinchlik o'rnatish va mamlakatda xavfsizlikni ta'minlashdagi muhim o'rni qayd etildi.

Muzokaralarda ikki tomon kun tartibidagi boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi.

Manba